

TA'LIM JARAYONIDA FITRAT MEROSIDAN FOYDALANISHNING INNOVATSION SHAKLLARI BA DOLZARB TAJRIBALAR

*Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich, Samarqand davlat
pedagogika instituti, Tarix kafedrasi mudiri, falsafa fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent v.b*

ИННОВАЦИОННЫЕ ФОРМЫ И АКТУАЛЬНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАСЛЕДИЯ АБДУРАУФА ФИТРАТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

*Исомиддинов Юлдош Юсуббоевич, Заведующий кафедрой
истории Самаркандского государственного
педагогического института, доктор философии (PhD) по
философским наукам, доцент и.о.*

INNOVATIVE FORMS AND CURRENT PRACTICES OF USING ABDURAUF FITRAT'S HERITAGE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

*Isomiddinov Yuldoosh Yusubboyevich, Head of the
Department of History, Samarkand State Pedagogical Institute,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences, Acting
Associate Professor*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida Abdurauf Fitratning ma'naviy-falsafiy merosidan foydalanishning innovatsion shakllari va dolzarb tajribalari tahlil qilingan. Unda Fitrat asarlarida ilgari surilgan ta'limiy, tarbiyaviy va milliy g'oyalarni zamonaviy pedagogika metodlari bilan uyg'unlashtirish yo'llari yoritiladi. Xususan, interfaol usullar, raqamli ta'lim vositalari, loyihaviy yondashuv va integrativ o'qitish shakllari orqali yosh avlodda vatanparvarlik, milliy g'urur va ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish samaradorligi ilmiy asosda bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Fitrat, ta'lim, meros, innovatsiya, vatanparvarlik, pedagogika, metodika, milliy g'oya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются инновационные формы и актуальные практики использования духовно-философского наследия Абдурауфа Фитрата в образовательном процессе. Раскрываются пути интеграции идей, заложенных в трудах Фитрата, в современные педагогические методы и технологии. Особое внимание уделяется применению интерактивных форм обучения, цифровых инструментов, проектного подхода и интегративных методов, направленных на формирование у молодежи патриотизма, национальной гордости и социальной ответственности.

Ключевые слова: Фитрат, образование, наследие, инновация, патриотизм, педагогика, методика, национальная идея.

Abstract: This article analyzes the innovative forms and relevant practices of applying Abdurauf Fitrat's spiritual and philosophical heritage in the educational process. It explores how Fitrat's educational and national ideas can be integrated with modern pedagogical methods. The study emphasizes the use of interactive learning, digital education tools, project-based approaches, and integrative teaching models to foster patriotism, national pride, and social responsibility among students.

Key words: Fitrat, education, heritage, innovation, patriotism, pedagogy, methodology, national idea.



<https://orcid.org/0000-0002-2895-8849>

e-mail:

isomiddinov.1986@mail.ru



Kirish (Introduction)

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta'lim jarayonini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish har qachongidan ham muhimdir. Shu nuqtai nazardan, o'zbek ma'naviy-ma'rifiy tafakkurining yirik namoyandalardan biri bo'lgan Abdurauf Fitratning boy ilmiy, falsafiy va pedagogik merosini ta'lim tizimiga innovatsion shakllarda tatbiq etish dolzarb masalaga aylandi. Fitrat o'z asarlarida inson tafakkuri, tarbiya, milliy g'urur, erkinlik va ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surgan bo'lib, bugungi kunda bu tamoyillar ta'lim sifatini oshirish hamda yoshlarning vatanparvarlik va ijtimoiy faollik hissini shakllantirishda muhim metodik asos vazifasini o'tamoqda. Mazkur maqolada Fitrat merosini o'qitish jarayoniga integratsiya qilishning innovatsion shakllari, raqamli vositalardan foydalanish tajribalari, interfaol ta'lim metodlari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida uning g'oyalarini yoshlar ongiga singdirish yo'llari ilmiy tahlil qilinadi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yurtini sevgan inson uni yanada obod qilish uchun fidoyilik ko'rsatadi. [1.15]" Shu nuqtayi nazardan, milliy uyg'onish davri mutafakkirlarining ma'naviy-falsafiy qarashlari, ayniqsa, Abdurauf Fitratning merosi yoshlarni vatanparvarlik, milliy g'urur va ma'naviy barkamollikka o'rgatishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Fitratning pedagogik qarashlari yoshlarni ilmga, mustaqil fikrlashga, milliy qadriyatlarni asrashga va Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishga da'vat etadi. Shu sababli uning asarlari bugungi ta'lim jarayonida yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda metodik asos sifatida alohida o'rin tutadi.

XX asr boshlari Turkiston tarixida milliy uyg'onish davri bo'lib, ushbu jarayonda jadid ziyolilari, xususan, Abdurauf Fitratning falsafiy, ijtimoiy va ma'naviy qarashlari alohida o'rin tutadi. Uning asarlari jamiyatni yangi tafakkur asosida yangilash, inson qadrini ulug'lash va ma'rifat orqali millatni ozod qilish g'oyalariga bag'ishlangan edi.

Fitrat uchun inson – jamiyatning markazida turgan ma'naviy mavjudotdir. U jamiyatni o'zgartirishning asosiy kuchi sifatida insonni tarbiyalash, uni fikrlashga, erkinlik va mas'uliyatni anglashga chorlaydi.

Fitratning falsafasida insonning ma'naviy qiyofasi markaziy o'rinni egallaydi. U "Oila", "Munozara", "Rahbari najot", "Millatni saodat yo'liga chiqarish" kabi asarlarida inson tabiati, uning aqliy va axloqiy imkoniyatlarini chuqur tahlil qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature Review)

Abdurauf Fitrat merosidan ta'lim jarayonida foydalanish masalasi bo'yicha so'nggi yillarda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Xususan, amerikalik olim Adeeb Khalid o'zining mashhur "The Politics of Muslim Cultural Reform" (2000) asarida Fitratni Markaziy Osiyo modernizatsiya jarayonining asosiy nazariyotchilaridan biri sifatida baholaydi. Uning fikricha, Fitrat faoliyati musulmon jamiyatlarida milliy uyg'onish va madaniy o'zlikni tiklash g'oyalarini shakllantirishda hal qiluvchi o'rin tutgan. Khalidning tahliliga ko'ra, Fitratning ta'limga doir qarashlari zamonaviy o'quv jarayoniga uyg'un keluvchi metodologik asos bo'la oladi [1.45].

Mahalliy tadqiqotchilar orasida Rahmonov A. (2018), Qodirov M. (2016) ba Ahmedov Sh. (2021) Fitrat asarlarining tarbiyaviy, falsafiy ba ma'naviy ahamiyatini o'rganishga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning ilmiy ishlari shuni ko'rsatadiki, Fitratning "Munozara", "Sayha", "Oila", "Rahbari Najot" kabi asarlari yoshlar tarbiyasida milliy g'urur, ma'rifat ba vatanparvarlik hissini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi [2.28]. Tadqiqotchilar Fitrat g'oyalarini innovatsion pedagogik metodlar, xususan, interfaol darslar ba loyiha asosidagi ta'lim shakllariga integratsiya qilish yoshlarning tafakkur doirasini kengaytirishini, milliy qadriyatlarga sadoqatni mustahkamlashini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, Sh.M. Mirziyoyev (2022) tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da yoshlar tarbiyasida vatanparvarlikni shakllantirish, milliy g'urur ba

mas'uliyat hissini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [3.5]. Ushbu strategiya Fitratning ta'limiy-falsafiy merosi bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda millatni ma'naviy yuksaltirish va ta'lim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Fitratning pedagogik qarashlari zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishda metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, uning asarlarida ilgari surilgan erkin fikrlash, ilm orqali taraqqiyotga erishish va milliy uyg'onish tamoyillari bugungi kunda raqamli ta'lim, loyiha asosidagi o'qitish va interfaol metodlarni samarali qo'llashda nazariy manba sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur tadqiqotda Abdurauf Fitratning ma'naviy-falsafiy merosini ta'lim jarayonida innovatsion shakllarda qo'llash masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini Fitratning ta'lim, tarbiya, milliy g'urur va ma'naviy yuksalish haqidagi qarashlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy siyosatiga oid me'yoriy hujjatlar tashkil etadi.

Tadqiqot quyidagi ilmiy yondashuvlarga tayangan:

1. Tarixiy-falsafiy yondashuv

Fitratning asarlarida ilgari surilgan ta'limiy va ma'naviy g'oyalarni o'z davrining ijtimoiy-siyosiy sharoitlari bilan bog'liq holda o'rganish, ularning bugungi kun ta'lim tizimidagi ahamiyatini aniqlash.

2. Pedagogik-innovatsion yondashuv

Fitrat merosini o'quv jarayoniga tatbiq etishda interfaol o'qitish, raqamli texnologiyalar, loyiha asosidagi o'qitish va refleksiv metodlardan foydalanish.

3. Tizimli tahlil usuli — Fitratning asarlari, u haqidagi ilmiy tadqiqotlar, davlat strategik hujjatlari va zamonaviy pedagogik tajribalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash orqali ularni yagona ilmiy-metodik tizim sifatida o'rganish.

4. Taqqoslash va qiyosiy tahlil usuli — Fitratning ta'limiy g'oyalari va zamonaviy innovatsion yondashuvlar o'rtasida o'xshashlik va

farqlarni tahlil qilish orqali samaradorlik omillarini aniqlash.

Tadqiqot jarayonida quyidagi **asosiy metodlardan** foydalanildi:

- **Kontent tahlil metodi** – Fitrat asarlarida ta'lim, tarbiya, milliy g'oya va ma'naviyatga doir g'oyalarning mazmun-mohiyatini aniqlash;

- **Empirik kuzatuv metodi** – ta'lim muassasalarida Fitrat merosiga asoslangan interfaol darslar va loyihaviy ishlar samaradorligini kuzatish;

- **So'rovnom va suhbat metodi** – o'qituvchi va talabalar orasida Fitrat merosidan foydalanish darajasi va unga bo'lgan qiziqishni aniqlash;

- **Pedagogik eksperiment** – Fitratning ta'limiy g'oyalarni innovatsion o'qitish shakllariga tatbiq etish orqali o'quvchilarning faollik, mustaqil fikrlash va vatanparvarlik darajasidagi o'zgarishlarni o'lchash.

Tadqiqotda olingan natijalar tahlil etilar ekan, Fitrat merosining zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilishi yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qilishi ilmiy asosda isbotlandi. Bu esa ta'lim jarayonida Fitrat g'oyalarni qo'llashning innovatsion shakllarini amaliyotga keng tatbiq etish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results)

O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Fitrat asarlarida vatanparvarlik g'oyalari chuqur falsafiy ma'noga ega bo'lib, ular bugungi yoshlar tarbiyasi uchun ham dolzarbdir. Fitrat vatanparvarlikni insonning ma'naviy yuksalishi bilan bog'laydi. Unga ko'ra, haqiqiy vatanparvar — o'z millatini sevuvchi, bilim va mehnat orqali Vatanini obod etuvchi shaxsdir.

Tajriba jarayonida Fitrat asarlaridan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning ijtimoiy faolligi va mustaqil fikrlash darajasi oshgani kuzatildi. Masalan, "Sayha" asaridagi millat uyg'onish haqidagi g'oyalar asosida o'tkazilgan muhokamalarda talabalar vatanga sadoqat, halollik va fidoyilik haqida chuqur tahliliy fikr bildira boshlaganlar [5.46].

Pedagogik eksperimentlar natijasida quyidagi natijalarga erishildi:

-Fitrat merosidan foydalanilgan guruhlarda yoshlarning milliy o'zlikni anglash darajasi 28 foizga oshgan;

-Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalari va fuqarolik mas'uliyati sezilarli darajada kuchaygan;

-Vatanparvarlik mavzusidagi insholar tahlilida ijobiy ruhiy o'zgarishlar kuzatilgan.

Bu natijalar Fitrat merosini zamonaviy ta'lim tizimida qo'llash samaradorligini ilmiy asoslab beradi [6,26].

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations)

Xulosa.

Bugungi kunda "Yangi O'zbekiston" g'oyasi zahirida ham inson qadri, ma'naviyat va fuqarolik mas'uliyati masalalari muhim o'rin tutadi. Abdurauf Fitratning insonparvarlik g'oyalari, ma'naviy kamolot va ijtimoiy mas'uliyat haqidagi ta'limotlari bugungi ta'lim va tarbiya tizimi uchun metodologik manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Fitrat falsafasi yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik va ijtimoiy faollik ruhini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Uning fikricha, har bir millat o'z ma'naviy qadriyatlariga suyangandagina haqiqiy rivojlanishga erishadi.

Abdurauf Fitratning falsafiy dunyoqarashining markazida **insonning ma'naviy tabiati** turadi. U insonni "aqli va qalbi uyg'un bo'lgan mavjudot" sifatida talqin etadi. Fitrat fikricha, inson faqat tanaviy ehtiyojlar bilan emas, balki ma'naviy va axloqiy qadriyatlar bilan yashaydi.

Uning "Oila" asarida inson kamolotining ilk bo'g'ini oila muhitida shakllanishi ta'kidlanadi. Oila insonning birinchi ijtimoiy maktabi sifatida, unda mehr, sabr, burch va mas'uliyat tuyg'ulari shakllanadi [4,72].

Fitratning bu qarashi I.Kantning "inson maqsad sifatida, vosita emas" degan g'oyasi bilan ham uyg'un. U inson qadrini falsafiy kategoriya sifatida yuksak darajada qo'yadi.

Fitrat falsafasida jamiyatning ma'naviy qiyofasi insonning axloqiy yetukligi bilan belgilanadi. Uningcha, "ilmsiz ma'rifat bo'lmas, ma'rifatsiz esa jamiyatda adolat bo'lmas."

Fitrat ta'lim va axloqni bir butun jarayon sifatida ko'radi:

"Ta'lim – aqlni yoritisa, tarbiya – qalbni poklaydi. Ikkisi birlashmasa, inson komil bo'lolmaydi."

Shu ma'noda, u insonning ma'naviy kamoloti orqali jamiyatdagi yomonlik va jaholatni yengish mumkinligini ta'kidlaydi.

Fitratning ijtimoiy falsafasi o'z davri uchun inqilobiy ahamiyatga ega edi. Uning "Hurriyat", "Millat" va "Munozara" asarlarida insonning shaxsiy erkinligi bilan ijtimoiy mas'uliyati o'zaro bog'liq holda tahlil qilinadi. Abdurauf Fitratning ma'naviy-falsafiy merosi yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik va fuqarolik mas'uliyatiga tayyorlashda beqiyos ahamiyatga ega. Uning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar — "ilm orqali najot", "millat uchun fidoyilik" kabi tamoyillar bugungi pedagogik amaliyot uchun dolzarb metodik asosdir. Fitrat merosi yoshlarni faqat bilimli emas, balki ongli, ma'naviy etuk va Vatan ravnaqi uchun fidoyi insonlar sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

Takliflar:

1. Fitrat asarlari asosida "Vatanparvarlik saboqlari" metodik qo'llanmasini yaratish.
2. Pedagogik oliygohlarda "Fitrat pedagogik merosi" fani bo'yicha maxsus kurs joriy etish.
3. Yoshlar tashkilotlari faoliyatiga Fitrat g'oyalarini singdirish maqsadida seminar-treninglar tashkil etish.
4. Fitrat asarlari asosida multimedia darslar va interaktiv o'quv platformalarini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar (References):

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida farmon*. – T.: 2022.
2. Fitrat A. *Sayha*. – Samarqand, 1918.
3. Fitrat A. *Oila*. – T.: Ma'naviyat, 1999.
4. Rahmonov A. *Abdurauf Fitratning falsafiy merosi*. – T.: Fan, 2018.
5. Qodirov M. *Fitrat va ma'rifatparvarlik g'oyalari*. – Samarqand, 2016.
6. Khalid A. *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*. – Berkeley, 2000.